

OROLBO'YI MINTAQASIDA O'RMONLARDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI.

Sultanova Niyozjon Ergashbay qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda Orolbo'yi mintaqasida o'rmon resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning zamonaviy huquqiy mexanizmlari tahlil qilingan. Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz hududda o'rmon ekotizimlarining nafaqat tabiiy resurs sifatidagi, balki ekologik barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatidagi ahamiyatini keskin oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Orolbo'yi hududlarida o'rmonlardan foydalanishni tartibga solishda ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, cho'llanish va yer degradatsiyasining oldini olish, biologik xilma-xillikni saqlash hamda mahalliy aholining manfaatlarini ta'minlash tamoyillarini o'zaro uyg'unlashtirish zarur hisoblanadi. Ushbu tezisda amaldagi huquqiy tartibga solishning asosiy muammolari aniqlanib, Orolbo'yi uchun maxsus huquqiy rejimni shakllantirish, himoya o'rmonzorlarining huquqiy maqomini aniqlashtirish, ekotizim xizmatlarini huquqiy jihatdan e'tirof etish va o'rmonlashtirish loyihalarini rag'batlantirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Orolbo'yi, o'rmon fondi, o'rmonlardan foydalanish, ekologik xavfsizlik, o'rmonlarni muhofaza qilish, cho'llanish, yer degradatsiyasi, ekotizim xizmatlari, o'rmonlashtirish, huquqiy rejim.

Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyat tabiiy resurslardan foydalanishning mavjud huquqiy mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va ularni hududning o'ziga xos ekologik sharoitlariga moslashtirishni taqozo etmoqda. Orol dengizining qisqarishi natijasida yuzaga kelgan yangi cho'l hududlari, tuproq va suv resurslarining degradatsiyasi, tuz va chang zarralarining atmosferaga tarqalishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi hamda iqlim sharoitining o'zgarishi Orolbo'yi hududida ekologik barqarorlikni ta'minlashning yangi huquqiy yondashuvlarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

Mazkur sharoitda o'rmonlar tushunchasiga faqat yog'och va boshqa o'rmon mahsulotlarini yetkazib beruvchi tabiiy resurs sifatida qarash yetarli emas. Orolbo'yi hududidagi saksovulzorlar, butazorlar va boshqa himoya o'rmonzorlari shamol eroziyasini kamaytirish, chang-tuz aralashmalarining tarqalishini cheklash, tuproqni mustahkamlash, mikroiklimni yaxshilash va biologik xilma-xillikni saqlash kabi muhim ekologik funksiyalarni bajaradi. Shu sababli Orolbo'yi mintaqasida o'rmonlardan foydalanishni huquqiy tartibga solish masalasini umumiy o'rmon huquqi

doirasidagina emas, balki ekologik, yer, suv va tabiiy resurslar huquqi institutlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganish lozim.

Ushbu tezis mavzusi bevosita ilmiy tatqiqod ishim bilan bog'liq bo'lib asosiy maqsadi Orolbo'yi mintaqasida o'rmonlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni kompleks tahlil qilish hamda hududning ekologik xususiyatlarini hisobga oluvchi zamonaviy huquqiy konsepsiyani ishlab chiqishdan iborat.

O'rmonlardan foydalanishning huquqiy tartibga solinishi, avvalo, o'rmon fondining huquqiy maqomi, o'rmon resurslaridan foydalanish turlari, ulardan foydalanish huquqini vujudga keltirish va bekor qilish asoslari, o'rmonlarni muhofaza qilish, davlat boshqaruvi va nazorati hamda qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik kabi masalalarni qamrab oladi. Biroq Orolbo'yi hududining ekologik holati mazkur umumiy qoidalarining o'ziga xos tarzda qo'llanishini talab etadi. Chunki ushbu hududdagi o'rmonlarning asosiy vazifasi ko'p hollarda iqtisodiy manfaat olishdan ko'ra ekologik himoya funksiyasini bajarishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, Orolbo'yi o'rmonlarini huquqiy tartibga solishda **“foydalanish – muhofaza qilish – tiklash”** uchligi asosiy huquqiy model sifatida qaralishi lozim deb hisoblayaman. Birinchidan, **o'rmonlardan foydalanish** huquqiy jihatdan ekologik cheklovlar bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Orolbo'yi hududida o'rmon resurslaridan foydalanish imkoniyati o'rmonlarning ekologik funksiyasiga zarar yetkazmasligi kerak. Masalan, himoya o'rmonzorlarida daraxt va butalarni kesish, chorva mollarini boqish, yer osti va yer usti resurslaridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatlar o'rmon ekotizimining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa, ularga nisbatan maxsus huquqiy cheklovlar qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, **o'rmonlarni muhofaza qilish** masalasiga hududning ekologik xavfsizligi nuqtayi nazaridan yondashish zarur. Orolbo'yi o'rmonlarining ekologik funksiyasi ularning iqtisodiy qiymatidan kam bo'lmagan, ayrim hollarda esa undan yuqori ijtimoiy qiymatga ega. Shu sababli o'rmonlarni baholashda faqat yog'och resurslari yoki boshqa moddiy mahsulotlar hisobga olinmasligi kerak. Ularning changni ushlab qolish, tuproqni eroziyadan himoya qilish, uglerodni yutish, biologik xilma-xillikni saqlash kabi funksiyalari ham huquqiy jihatdan e'tirof etilishi lozim. Uchinchidan, Orolbo'yi sharoitida **o'rmonlarni tiklash va yangi o'rmonzorlar barpo etish** mustaqil huquqiy institut sifatida rivojlantirilishi zarur. Amaliyotda o'rmonlashtirish bilan bog'liq loyihalar ko'pincha ekologik tadbir sifatida amalga oshiriladi. Biroq mazkur faoliyatning huquqiy maqomi, yer uchastkalaridan foydalanish asoslari, barpo etilgan o'rmonzorlarni hisobga olish, ularni keyinchalik muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibi aniq va tizimli huquqiy normalar bilan mustahkamlanishi kerak. Tadqiqot nuqtayi nazaridan eng muhim masalalardan biri Orolbo'yi hududida joylashgan o'rmonlarning maxsus huquqiy maqomini shakllantirish

hisoblanadi. Orolbo‘yi mintaqasidagi barcha o‘rmonzorlarning ekologik vazifasi bir xil emas. Ayrim o‘rmonzorlar bevosita chang-tuz bo‘ronlarining oldini olishga xizmat qilsa, boshqalari biologik xilma-xillikni saqlash yoki aholi yashash punktlarini shamol ta’siridan himoya qilish vazifasini bajaradi. Shu sababli ularni funksional jihatdan tasniflash va har bir toifa uchun alohida huquqiy rejim belgilash lozim hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, Orolbo‘yi o‘rmonlarini quyidagi funksional guruhlariga ajratish ilmiy jihatdan asoslangan deb hisoblanadi:

- ekologik himoya funksiyasini bajaruvchi o‘rmonzorlar;
- cho‘llanish va shamol eroziyasiga qarshi barpo etilgan o‘rmonzorlar;
- biologik xilma-xillikni saqlashga xizmat qiluvchi o‘rmonzorlar;
- aholi punktlari va infratuzilma obyektlarini himoya qiluvchi o‘rmonzorlar;
- xo‘jalik maqsadlarida foydalaniladigan o‘rmon hududlari.

Bunday funksional tasnif o‘rmonlardan foydalanishning yagona, umumiy rejimidan farqli ravishda, differensial huquqiy rejimni shakllantirish imkonini beradi. Masalan, ekologik himoya funksiyasini bajaruvchi o‘rmonzorlarda foydalanish huquqi sezilarli darajada cheklanishi, ayrim faoliyat turlari esa butunlay taqiqlanishi mumkin. Aksincha, iqtisodiy foydalanishga mo‘ljallangan o‘rmonlarda qonunchilikda belgilangan talablar asosida resurslardan foydalanish imkoniyati saqlanib qoladi.

Orolbo‘yi hududida o‘rmonlashtirish jarayonlari ko‘p jihatdan yer munosabatlari bilan bog‘liq. Ayniqsa, Orol dengizining qurigan tubida o‘rmonzorlar barpo etilishi yangi ekologik hududlarning huquqiy maqomini aniqlash masalasini yuzaga keltiradi. Bu yerda muhim ilmiy muammo shundan iboratki, yangi o‘rmonzor barpo etilgan hududning huquqiy maqomi uning ekologik funksiyasiga mos ravishda shakllantirilishi lozim. Ya’ni o‘rmonlashtirish natijasida hududda yangi o‘rmon ekotizimi vujudga kelayotgan bo‘lsa, ushbu hududning keyingi huquqiy rejimi faqat yer uchastkasining dastlabki toifasi bilan belgilanmasligi kerak.

Shu munosabat bilan “o‘rmonlashtirilgan ekologik hudud” yoki “Orolbo‘yi himoya o‘rmonzori” kabi maxsus huquqiy kategoriyalarni joriy etish masalasini ilmiy jihatdan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuv yer va o‘rmon qonunchiligi o‘rtasidagi huquqiy bog‘liqlikni kuchaytiradi hamda o‘rmonlashtirish loyihalari amalga oshirilgan hududlarning keyingi taqdirini huquqiy jihatdan aniq belgilash imkonini beradi.

Ekotizim xizmatlarini huquqiy tartibga solish Orolbo‘yi mintaqasida o‘rmonlardan foydalanishni zamonaviy tartibga solishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri o‘rmon ekotizim xizmatlarini huquqiy jihatdan e’tirof etish hisoblanadi.

Orolbo‘yi sharoitida ushbu xizmatlarning ijtimoiy ahamiyati ayniqsa yuqori. Shuning uchun kelgusida o‘rmon ekotizim xizmatlarini baholash, ularni

moliyalashtirish va muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lishi mumkin.

Masalan, o'rmonlashtirish loyihalarini amalga oshiruvchi subyektlarga soliq, subsidiyaviy yoki boshqa iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash, ekologik natijaga erishganlik uchun kompensatsiya yoki grant mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash mumkin. Orolbo'yi o'rmonlaridan foydalanishni tartibga solishda mahalliy aholining manfaatlari ham muhim ahamiyatga ega. O'rmon hududlari mahalliy aholi uchun yaylov, o'simlik resurslari, rekreatsiya va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi mumkin. Shu sababli o'rmonlarni muhofaza qilishga qaratilgan cheklovlar mahalliy aholining qonuniy manfaatlari bilan muvozanatlashgan bo'lishi kerak. Bu borada jamoatchilik ishtiroki, ekologik qarorlarni qabul qilish jarayonida aholining fikrini hisobga olish va mahalliy hamjamiyatlarni o'rmonlarni muhofaza qilish faoliyatiga jalb qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish muhim.

O'rmonlarni muhofaza qilishga mahalliy aholining bevosita manfaatdorligini oshirish ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishning samarali vositalaridan biri bo'lishi mumkin. Olib borilgan tahliliy o'rganilishlar asosida Orolbo'yi mintaqasida o'rmonlardan foydalanishni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Orolbo'yi mintaqasida o'rmonlardan foydalanishni huquqiy tartibga solish masalasi oddiy tabiiy resurslardan foydalanish munosabatlaridan ancha keng bo'lib, u ekologik xavfsizlik, cho'llanishga qarshi kurash, yerlarning degradatsiyasini kamaytirish, biologik xilma-xillikni saqlash va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish bilan bevosita bog'liq.

Orolbo'yi sharoitida o'rmon huquqining an'anaviy "resursdan foydalanish" modelidan ekologik funksiyaga asoslangan "muhofaza qilish – tiklash – oqilona foydalanish" modeliga bosqichma-bosqich o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunday qilib, Orolbo'yi mintaqasida o'rmonlardan foydalanishni huquqiy tartibga solishning zamonaviy konsepsiyasi ekologik ustuvorlik, differensial huquqiy rejim, ekotizim xizmatlarini e'tirof etish, o'rmonlarni tiklashni rag'batlantirish va jamoatchilik ishtiroki tamoyillariga asoslanishi lozim. Mazkur yondashuv nafaqat mavjud o'rmon resurslarini saqlash, balki Orolbo'yi hududida ekologik barqarorlikni tiklashning samarali huquqiy mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining O'rmon kodeksi.

3. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonuni.